


## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Qishloq xo‘jaligi” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="185 400 600 746"><b>Issiqxonalarda tomchilatib sug‘orish uchun ko‘chma sug‘orish suv inshooti konstruksiyasi va sun‘iy intellektli adaptiv boshqaruv modelini ishlab chiqish</b></p> 	<p data-bbox="705 357 1055 387"><b>Tadqiqot shakli:</b> Amaliy.</p> <p data-bbox="705 395 1066 426"><b>Ilmiy tadqiqot natijalari:</b></p> <p data-bbox="633 434 2058 539">Bitta intellektual ko‘chma inshoot orqali bir nechta issiqxonalarda suv va o‘g‘it resurslarini optimal sarflashni ta‘minlash. Bir inshoot bir nechta issiqxona konsepsiyasi orqali investitsiya xarajatlarini qisqartirish va xizmat ko‘rsatishni soddalashtirishga erishiladi. Bunda:</p> <p data-bbox="633 547 2058 652">Suv va o‘g‘it sarfini optimallashtirish natijasida, ularni tejalishi orqali resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bunda sun‘iy intellekt texnologiyalari orqali optimal boshqaruv rejimlari taklif etiladi.</p> <p data-bbox="633 660 2058 730">Nasos, klapan va “Venturi” fertigatsiya rejimlarini avtomatik boshqarish orqali energiya sarfini kamaytirishga erishiladi. Energiya tejamkor texnologiya ishlab chiqiladi.</p> <p data-bbox="633 738 2058 879">Plug &amp; Play ko‘chma sug‘orish inshooti konstruksiyasi yaratiladi. Natijada, issiqxonalar orasida ko‘chirib yurilishini nazarda tutadigan, tez ulanadigan mustaqil modulli inshoot konstruksiyasi xizmat ko‘rsatish vaqtini kamaytirishga erishiladi. Bunda Adaptiv boshqaruv algoritmi o‘zgaruvchan muhit sharoitlariga avtomatik moslashishni ta‘minlaydi.</p> <p data-bbox="705 887 1883 917">Tizim avtomatik tarzda gidravlik parametrlarni aniqlab, optimal rejimlarini hisoblaydi.</p> <p data-bbox="633 925 2058 995">Mexanik soddalik, sifatli komponentlar va avtomatik diagnostika ishonchlilikni oshirishni ta‘minlaydi.</p> <p data-bbox="633 1003 2058 1109"><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish.</b> Olingan natijalar Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar va muassasalarda sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida <b>Suv xo‘jaligi vazirligining xulosasi</b> olinadi.</p> <p data-bbox="633 1117 2058 1257"><b>Ilmiy natijalarni chop etish.</b> Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="633 1265 2058 1335"><b>Izoh.</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar <b>Suv xo‘jaligi vazirligining</b> qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>